


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**  
**VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Muradov Murodjon

**«KIMYODA KOMPYUTER MODELLASHTIRISH»**  
**fanidan**

**O'QUV-USLUBIY  
KO'RSATMA**

(60530100 – Kimyo bakalavriat yo'naliishi talabalari uchun)



**Namangan – 2024**

Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan 2024 yil «28» – iyundagi №16 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchi:**

**o'qituvchi M.T. Muradov**

**Taqrizchi:**

**dotsent G'.U. Siddiqov**

## **1-Mavzu: Shaxsiy kompyuterlar bilan ishlash. Standart yordamchi redaktor va grafik dasturlari bilan ishlash (ChemWin).**

1832 yilda elektromagnit telegraf aloka kashf etildi. Amerikalik Morze bir-biri bilan boglik bulmagan holda yozuvchi telegraf apparatini ihtiyoq kildilar. SHu asosida Morze telegraf alifbosiga yaratildi. Bu Morze alifbosiga asosan 1841 yilda Peterburg – «Sarskoe selo» orasida uzunligi 25 km va 1843 yilda Vashington Baltimor orasida uzunligi 63 km aloka yaratildi.

1866 yilda kabelli telegraf alokasi yaratildi. Bu alokadan Evropa-Osiyo-Atlantika okeani orkali foydalanildi.

1837 yilda odam nutkini elektrik signal orkali uzatishga harakat kilindi. 40 yildan keyin 1876 yilda shotlandiyalik bulgan Bostan shahri fukarosi Aleksandr Grehem Bell elektromagnit telefon yaratdi.

1878 yilda muhandis A Mihalskiy kumirli mikrofon yaratdi.

1879 yilda telefon apparati yaratildi. («Bell Telephone CO» firmasi E.Grey, germaniyalik E. Berliner, Bell, bostonlik Bleyk)

1878 yilda Nyu-Heven (AKSH) shahrida eng birinchi kulda boshkariladigan telefon stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya 25 ta abonentga hizmat kursatishga muljallangan edi. Bu rakam tez orada 50 abonentga etkazildi.

1887 yili rus muhandisi A.Mosiskiy kichik hajmdagi avtomatik telefon stansiyasini ishlab chikdi. 1889 yili aka-uka Stroudjerlar yukori va aylanma harakatga asoslangan izlovchini ihtiyoq kildilar. 1892 yilda La-Port (AQSH) shahrida shu izlovchiga asoslangan birinchi avtomatik telefon stansiyasi ishga tushirildi.

1895 yilda 7 may radio ihtiyoq kilindi. U 1900 yilda balikchilarni kutkarishda ishlatildi.

1916 yilda Moskvada kulda boshkariladigan stansiyalar asosida 60000 abonentga hizmat kursata oladigan mahalliy telefon stansiyasi bor edi.

1921 yilda Detroit kompaniyasi 2 MGsga yakin chastotali diapozonda ishlaydigan mobil telefon yaratdi.

1980 yillarda uyali aloka tizimlari ishga solindi. Birinchi NMT – 450 standarti (AKSH) ishlatildi.

Turkistonda birinchi telefon alokasi tugrisidagi malumot 1887 yilga tegishli. SHu yili Turkiston ulkasi pochta – telegraf alokasi boshligi uyi bilan Toshkent pochta binosi urtasida aloka urning. 1904 yil 7 sentyabrda Toshkent shahrida 55 abonentga muljallangan kulda boshkariladigan telefon stansiyasi ishga tushirilgan.

Komp'yuter - inglizcha so`z bo`lib, u xisoblovchi demakdir. Garchand u xozirda faqat xisoblovchi bo`lmaysdan, matnlar, tovush, video va boshqa ma`lumotlar ustida xam amallar bajaradi. SHunga qaramasdan xozirda uning eski nomi – komp'yuter saklangan. Uning asosiy vazifasi turli ma`lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Avallo shuni aytish lozimki, ko`pchilikning tushunchasida go`yoki biz kundalikda foydalanadigan faqat shaxsiy komp'yuter bor xolos. Bunga albatta sabablar ko`p. SHulardan biri xozirgi zamon shaxsiy komp'yuterlar ilgari

universal deb xisoblangan komp'yuterlardan tezligi va xotira xajmi jixatidan ancha oshib ketganligida bo`lsa, ikkinchi tomondan ko`p masalalarini echish uchun bu komp'yuterlar foydalanuvchilarni қanoatlantirishidir. Xozirda komp'yuter termini ko`p uchrasada, shu bilan birga eXM (elektron xisoblash mashinalari), XM (xisoblash mashinalari) terminlari xam xayotda ko`p ishlatis turiladi. Ammo biz soddalik uchun faqat komp'yuter terminidan foydalanamiz. Komp'yuterlarning amalda turli xillari mavjud: raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtirilgan. Ammo, raqamli komp'yuterlar foydalanishi, bajaradigan amallarning universalligi, xisoblash amallarining aniqligi va boshqa ko`rsatkichlari yuqori bo`lgani uchun, ular ko`proq foydalanilmokda. Amalda esa xozir rivojlangan mamlakatlarda komp'yuterlarning besh guruxi keng ko`llanilmokda.

### **Zamonaviy kompyuterlar sinflari**

Komp'yuterlarni xotirasining xajmi, bir sekundda bajaradigan amallar tezligi, ma`lumotlarning razryad to`rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga қarab, besh guruxga bo`lish mumkin:

- super komp'yuterlar (Super Computer);
- katta komp'yuterlar (Manframe Computer);
- mini komp'yuterlar (Minicomputer);
- shaxsiy komp'yuterlar (PC-Personal Computer);
- bloknot(noutbook) komp'yuterlar.

SHuni qayd qilish lozimki, superkompyuterlarning ma`lum yo`nalish masalalarini echishga qaratilgan turlari xam mavjud.

Katta kompyuterlar (Manframe Computer)- fan va texnikaning turli soxalariga oid masalalarini echishga mo`ljallangan. Ularning amal bajarish tezligi va xotira xajmi superkompyuterlarnikiga qaraganda bir-ikki po`fona past. Bularga misol sifatida AQSHning CRAY (krey), IBM 390, 4300, IBM ES / 9000, Fransiyaning Borrous 6000, Yaponianing M1800 rusumli kompyuterini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Minikompyuterlar (kichik kompyuterlar) xajmi va bajaradigan amallar tezligi jixatidan katta kompyuterlardan kamida bir po`fona pastdir. SHuni aytish joizki, ularning gabariti (xajmi) tobora ixchamlashib, xatto shaxsiy kompyuterdek kichik joyni egallaydiganlari yaratilmoqda. Bunday kompyuterlar turkumiga ilk bor yaratilgan PDP-11 (Programm Driver Processor - dasturiy boshqaruvi protsessori) turkumini, ilgari xarbiy maqsadlar uchun ishlatilgan(maxfiy xisoblangan) VAX, SUN turkumli kompyuterlar, IBM 4381, Hewlett Packard firmasining HP 9000 va boshqalar minikompyuterga misol bo`la oladi. SHuni aytish joizki, minikompyuterlar o`zlarining «katta ofalari» Manframe kompyuterlarni imkoniyatlari darajasiga ko`tarilib bormoqda. Buning uchun tarixga nazar solish va xozirgi ularning taraqqiyotini kuzatish etarli.

SHaxsiy kompyuterlar xozirda korxonalar, muassasalar, oliy o`quv yurtlarida keng tarqalgan bo`lib, ularning aksariyati IBM rusmiga mos kompyuterlardir.

### **SHaxsiy kompyuter**

Bular IBM, Compaq, Hewlett-Packard, Packard Bell, Toshiba, Apple, Siemens Nixdors, Acer, Olivetti, Gateway, SUN va boshqa firmalardir. SHuni

aytish joizki, yuqorida nomlari zikr etilgan firmalar ishlab chiqargan kompyuterlar (bradename) - «Oq yasalgan», Janubiy-SHarqiy mamlakatlarda: Malayziya, Xitoy, Tayland, Koreya va boshqa mamalakatlarda yuqorida nomlari keltirilgan firmalar litsenziyasi asosida ishlab chiqarilgan kompyuterlar «Sariq yasalgan» nomga ega. Firma nomlari ko`rsatilmagan kompyuterlar esa «nomsiz kompyuterlar» (noname)deb yuritiladi. Ayniqsa, keyingi gurux kompyuterlarni sotib olishda ular yaxshi tekshiruvdan (testlar yordamida) o`tkazilishi lozim. SHaxsiy kompyuterlar uchun uning muxim ko`rsatkichi ishlash kafolatining (kamida uch yil) bo`lishi muxim. SHu bilan birga, bunday kompyuterlarni sotib olganda litsenzion programma ta`minoti va tegishli adabiyotlar bilan birga berilish imkoniyati mavjudligi nazarda tutilishi kerak.

**Noutbuk kompyuterlar.** Noutbuk kompyuterlar xajmi ancha ixcham bo`lib, ammo bajaradigan amallar soni, xotira xajmi shaxsiy kompyuterlar darajasiga ko`tarilib bormoqda. Ularning qulaylik tomonlaridan biri xam elektr energiyasidan va ichiga o`rnatilgan batareyalarda xam uzlucksiz (batareyani xar safar almashtirmasdan) ishlash mumkinligidir.

Bunda batareya quvvati energiyaga ulanishi bilan o`zi zaryad ola boshlaydi va u batareya bir necha yillarga mo`ljallangan bo`ladi. Xozirda bunday noutbuklarni IBM, Compaq, Acer, Toshiba va boshqa firmalar ishlab chiqarmoqda. Tabiiyki, bunday kompyuterlar o`z imkoniyatlari nuqtai nazaridan shaxsiy kompyuterlarga tenglashayotganini nazarda tutilsa, uning narxi baland bo`lishini sezish qiyin emas. Bundan tashqari, bunday rusumli kompyuterlar 8-10 yil mobaynida buzilmasdan ishlash qobiliyatiga ega. Ular shaxsiy kompyuterlar uchun yaratilgan operatsion sistemalar MS DOS, qobiq programmalar, Windows ning oxirgi versiyalarida va boshqa operatsion sistemalar boshqaruvida ishlaydi.



Noutbuk kompyuteri



CHo`ntak kompyuteri

Xozirda noutbuk kompyuterlaridan xam ixcham cho`ntak kompyuterlari xam ishlab chiqilmoqda. Ular xam tabiiyki, operatsion sistema boshqaruvida ishlaydi va ular turli soxa masalalarini echishga qodir.

### **Kompyutering ishlash printsipi va tashkil etuvchilar**

Ixtiyoriy kompyuterni ishlash printsipini birinchi bo`lib ingliz olimi CHarlz Bebich va uning g`oyasini mukammallashgan ko`rinishini Djon Fon Neyman taklif qilgan. Uning printsipi programma asosida boshqariladigan avtomatik ravishda ketma-ket ishlash foyasidan iborat. Xozirda ko`p rusumli kompyuterlar shu foya asosida ishlaydi. Lekin keyingi paytlarda ko`p protsessorli kompyuterlar, ya`ni bir vaqtda programmaning bo`laklarini ketma-ket emas, parallel bajaradigan kompyuterlar xam yaratilganligini eslatib o`tish joizdir. SHunday qilib, kompyuter avvaldan tuzilgan programma asosida ishlaydi. O`z navbatida programma qo`ylgan masalani kompyuterda echish uchun qandaydir programmalash tilida yozilgan buyruqlar (operatorlar) ketma-ketligidir. Programmalash tilida tuzilgan programmalar maxsus tarjimon programmalar yordamida kompyuter tiliga o`tkaziladi. Kompyuter tili 0 va 1 lardan tashkil topgan, ma`lum qoidalar asosida

yoziladigan ketma-ketliklardan iborat. Djon Fon Neyman printsipi bo`yicha avtomatik ravishda bajariladigan programma avval kompyuterning xotirasiga kiritiladi (yuklanadi). Xotirada turgan programma asosida programmani tashkil etuvchi xar bir operator ketma-ket bajariladi.

Boshqaruv qurilmasi deb ataluvchi maxsus qurilma xozir qanday operator bajarilishi va undan keyin qaysi operator bajarilishi ustidan nazorat o`rnatadi va uni bajarilishini ta`minlaydi. Amal (arifmetik-mantiqiy) esa protsessor deb ataluvchi qurilmada bajariladi. Programma ishlash natijasi to`fridan-to`fri ekranda yoki tashqi qurilma (chop qiluvchi mexanizm, grafik chizuvchi qurilma, video qurilma va boshqalar) deb ataluvchi qurilmada ko`rilishi mumkin. Odatda kompyuter ikki qismdan: Hardware (kompyuterni tashkil etuvchilari - *kompyuterning qattiq qismlari*) va Software (kompyuterning programma ta`minoti - *kompyuterning yumshoq qismlaridan*) tashkil topgan deyiladi.

### **SHaxsiy kompyuterlarning tuzilishi**

SHaxsiy kompyuterlar (inglizcha Personal Computers, qisqacha- PC) quyidagi qurilmalardan tashkil topgan:

- sistema bloki;
- monitor;
- klaviatura;
- sichqoncha;
- tashqi qurilmalar.

Windowsda sonlarni kiritish klaviaturasini sichqoncha o`rnida ishlatish mumkin.

### **SHaxsiy kompyuterning tuzilishi**

1	Klavushlar	Vazifalari
2	Power	Kompyuterni o`chirish va yoqish
3	Sleep	Vaqtincha kompyuter dam oldirish (uxlatmoq)
4	Wake up	Vaqtincha to`xtatilgan kompyuterni ishga tushirish (uyg`atmoq)
5	Reset	kompyuterni qayta ishga tushirish
6	Esc	Buyruqlarni inkor etish
7	F1	Word dasturi xaqida yordamchi malumot
8	F4	Oxirgi bajarilgan amalni takrorlash
9	F5	Kerakli saxifaga bir martada o`tish
10	F7	So`zlarni to`gri monosini taminlash
11	F8	2-3 marta bosish natijasida barchasini blokga olish
12	F10	Word menyulariga chikish
13	F11	Redaktor formula yozilgan qatorga o`tish
14	F12	Yangi nom bilan saqlash
15	Prt Sc SysRq	Ekranni xotiraga olish
16	Scrol lock	Qo`shimcha imkoniyat yaratish
17	Pause Break	Vaqtincha to`xtatish

18	Tab	Kursorni sakratish yoki bir abzats joy ajratish
19	CapsLock	Katta yoki kichik xarflarda yozish (yoniq bo`lsa katta xarfda, o`chik bo`lsa kichik xarflarda yozadi)
20	Shift	Tugmachalarni vazifasini o`zgartirish (qo`shimcha tugmachalar)
21	Ctrl	Tugmachalarni vazifasini o`zgartirish (qo`shimcha tugmachalar)
22	Pusk	Start komandasini berish
23	Alt	Dastur menyusiga chiqish
24	Proble	Bo`sh joy tashlash (kursor turgan joydan boshlab surish)
25	Enter	YAngi satrga o`tkazish yoki buyruqni bajarish
26	Baskspace	Kursor turgan joydan boshlab chap tomonidagi belgini o`chirish
27	Insert	Kursor oldida turgan belgini o`chirib yoki surib yozish
28	Delete	Kursorni o`ng tomonidagi belgini o`chirish (o`chirish)
29	Home	Satr boshiga kursorni o`tkazish
30	End	Satr oxiriga kursorni o`tkazish
31	Page up	Bir saxifa yuqoriga o`tish
32	Page Down	Bir saxifa pastga o`tish
33	Num lock	YOrdamchi klavaturani ishga tushirish
34	Ctrl+Esc	(Pusk) Start komandasini berish
35	Ctrl+F1	Dasturi xaqida yordamchi malumot
36	Ctrl+F2	Pechatga chikarishdan oldingi xolatni ko`rish (Predvaritelniy prosmotr)
37	Ctrl+F4	Dastur oynasini yopish (Ctrl +W)
38	Ctrl+F5	Dastur oynasini kichik xolatga keltirish
39	Ctrl+ F6	Word dokumentlarini ishlayotgani dasturlarni almashtirish
40	Ctrl+F9	Sistemali qavs ochish
41	Ctrl+F10	Word oynasi katta va kichik xolatga keltirish
42	Ctrl+F12	Xotiradagi papka va fayllar ro`yxatini ochish
43	Ctrl+Tab	Kursor tigan joydan surish
44	Ctrl+Shift	Russkiy Angliyskiy tillarga o`tkazish (bazi kompterlarda)
45	Ctrl+Shift+F	Instrumentlar panelidagi “SHrift” bo`limiga chiqish
46	Ctrl+Shift+P	Instrumentlar panelidagi “SHrift razmeriga” bo`limiga chiqish
47	Ctrl+Q	Kursorni chap chekkaga surish
48	Ctrl+W	Word oynasini yopish
49	Ctrl+E	Kursorni o`rtaga surish
50	Ctrl+R	Kursorni o`ng chekkaga surish
51	Ctrl+T	Lineykani ko`rsatkichini o`nga surush
52	Ctrl+y	Lineykani ko`rsatkichini o`nga surush

53	Ctrl+U	YOzuvni tagiga chizish
54	Ctrl+I	Qiya xolatda yozish
55	Ctrl+O	Xotiradagi papka va fayllar ro`yxatini ochish
56	Ctrl+P	Pechatga chiqarishga buyruq berish
57	Ctrl+A	Matnni xammasini belgilash
58	Ctrl+S	Saqlash
59	Ctrl+D	SHrift oynasini chiqarish
60	Ctrl+F	Matndagi kerak bo`lgan so`zni yoki belgini topish (izlash)
61	Ctrl+G	Izlash va almashtirish oynasini chiqarish
62	Ctrl+H	Matndagi so`z yoki belgini almashtirish (zamenit)
63	Ctrl+K	Biror bir so`zga faylni boflash (Giperssilka)
64	Ctrl+Z	Oldinga xolatga o`tish (otmenit)
65	Ctrl+X	Belgilangan joyni qirqish
66	Ctrl+C	Belgilangan qismini xotiraga olish
67	Ctrl+V	Xotiraga olingan matnni ko`rsatilgan joyga tashlash
68	Ctrl+B	YOzuvlarni qalinlashtirish (Polujirniy)
69	Ctrl+N	YAngi dokument ochish
70	Ctrl+M	So`z yoki belgini cursor turgan joydan bir xilda o`nga surish
71	Ctrl+ Enter	YAngi saxifaga o`tish
72	Ctrl+ Delete	Kursor turgan joydan o`ng tomondagi bir so`zni o`chiradi
73	Ctrl+ End	Kursorni saxifa oxiriga o`tkazish
74	Ctrl+ Home	Kursorni saxifa boshiga o`tkazish
75	Ctrl+Insert	Belgilangan qismni doimiy xotiraga olish
76	Ctrl+1	Qator oraligida bir interval joy ajratish
77	Ctrl+2	Qator oraligida ikki interval joy ajratish
78	Ctrl+5	Qator oraligida bir yarim interval joy ajratish
79	Ctrl+Alt+ Delete	Kompyuterni qayta ishga tushirish (Perezagruzka)
80	Alt+Esc	xujjatdan chiqib ketish
81	Alt+F1	Redaktor formula yozilgan qatoga o`tish
82	Alt+F4	Word dasturdan chiqish
83	Alt+F5	Ekranni qisqartirish
84	Alt+F6	Ochilgan xujjatlarga o`tish
85	Alt+F7	Kursor turgan so`zni xatoligini tekshirish
86	Alt+F8	Makros
87	Alt+F10	Ekranni katta va kichik xolatga o`tkazish
88	Alt+F11	Microsoft Visual Basic ga o`tish
89	Alt+Tab	Dasturdan dasturga o`tish
90	Alt+Shift yoki Ctrl+Shift	Tillarni almashtirish (En,Russ,O`z)
91	Alt+Proble	Word oynasini chap yuqorisidagi svernut, vosstanovit,zakrit menyusini chiqarish

92	Alt+F	Fayl menyusiga chiqish
93	Alt+P	Pravka menyusiga chiqish
94	Alt+V	Vid menyusiga chiqish
95	Alt+A	Vstavka menyusiga chiqish
96	Alt+M	Format menyusiga chiqish
97	Alt+E	Servis menyusiga chiqish
98	Alt+T	Tablitsa menyusiga chiqish
99	Alt+O	Okno menyusiga chiqish
100	Alt+S	Spravka menyusiga chiqish
101	Alt+G	Avtogramalar bilan ishlash
102	Ctrl+ Shift+P	Bir martada shriftga chiqish
103	Ctrl+ Shift+A	Kichik xarfda yozilgan so`zlarni bir martada katta xarflarga o`tkazish
104	Ctrl+Shift+Enter	Kursor tigan joydagi so`zni yangi saxifaga tushirish

## **2-mavzu: Xromofor tutgan birikmalarni topish va UB – spektrini hisoblash. Tajribada olingan UB – spektri bilan taqqoslash.**

Elektromagnit spektrining UB sohasi to'lqin uzunligi qiymatlari bilan bir-biridan farq qiladigan ikki xil sohachalarga, ya'ni uzoq UB va yaqin UB sohachalarga bo'linadi. Uzoq sohadagi to'lqin uzunligining qiymati 190 nm dan kichik bo'lib, uning oxirgi kichik qiymati rentgen nurlarining sohasiga yaqinlashadi. Yaqin UB sohaga tegishli bo'lган to'lqin uzunlikning qiymati 190 nm dan yuqori bo'lib 450 nm gacha bo'lган sohaga ega.

Amaliyotda organik moddalar tuzilishini o'rganishda yaqin UB soha keng miqyosda ishlatiladi. Bu sohada yutilishning sodir bo'lishiga asosiy sabab, molekulalarda to'yinmagan guruxlar, hamda taqsimlanmagan elektronlari bo'lган atomlarning bo'lishidir. Yaqin UB sohasida yutilish maksimumini beradigan guruxlarga xromoforlar deb aytildi.

Agar molekulada xromoforlar ko'p miqdordagi boshqa xromoforlar bilan bog'langan bo'lsa yutilish maksimumining qiymati katta to'lqin uzunlikdagi sohaga siljiydi, shuning uchun ham bunday tuzilishdagi birikmalar ko'p hollarda rangli bo'lib, yutilish maksimumini ko'zga ko'rindigan sohada ( $\lambda=450-850$  nm) namoyon qiladi.

Elektronlarning energetik pog'onalarini va o'tish holatlari


Ma'slumki, yadro atrofidagi elektronlar energetik pog'onalarda joylashib orbitalga ega bo'ladi va o'ziga xos energiyaga ega bo'lган bunday orbitallarni  $1s, 2s, 2p, 3s, \dots$  deb belgilanadi. Elektronlar spinga ega, ya'ni ular o'z o'qi atrofida aylanadi, uning spin soni  $S=1/2$  ga teng bo'ladi. Bu qiymat bitta proton spinining qiymatiga teng, demak elektron ham protonga o'xshab ikkita spin holatida bo'ladi ( ). Pauli qonuniga asosan atom orbitalidagi elektronlar qarama-qarshi spinga ega bo'lган ikkita elektronidan iborat bo'lганida orbital to'liq to'ldirilgan hisoblanadi.

UB nuri taъsirida elektronlardan birini yuqoriroq orbitalga o'tkazish mumkin, buning natijasida UB va ko'rinvchi sohada spektrlarning kuzatilishi ro'y beradi.

Kimyoviy bog'ning hosil bo'lishida qatnashmaydigan elektronlar atomlarda ham molekulalarda ham bir xilda joylashgan bo'ladi. Kimyoviy bog' hosil bo'lishida qatnashadigan elektronlar esa molekulada atomlardagi elektronlardan keskin farq qiladi, yaъni ikki atom juftini bog'lovchi  $j$  va  $j^*$  molekulyar orbitallar ikkita atom orbitallarining birlashishidan hosil bo'ladi. To'yingan uglevodorodlardagi uglerod-vodorod bog'ining hosil bo'lishidagi bog'lovchi elektronlar molekulyar orbitallarda joylashgan bo'lib, ular vodorod atomining 1s orbitalidan va uglerod atomining sr3 gibrild orbitalidan tashkil topadi.

$\text{CH}_4$  molekulasi to'rtta oddiy s bog'lardan tashkil topgan bo'lib, bu bog'larning hosil bo'lishida qatnashadigan elektronlarni quyi pog'onadan yuqori pog'onaga o'tkazish uchun juda katta energiya sarf qilinadi. Bu elektron o'tishni  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  deb va unga tegishli bo'lgan yutilish uzoq UB soha (120 nm) da namoyon bo'ladi. Bu sohani amaliyotda o'rganish imkoniyati yo'q va shuning uchun to'yingan uglevodorodlar UB spektri yordamida deyarli o'rganilmaydi.

Agar to'yingan uglevodoroddagi bitta vodorod atomini o'zida kimyoviy bog' hosil bo'lishida qatnashmagan elektron tutgan o'rinosar bilan almashtirilsa, bu molekulada boshqacha elektron o'tish ro'y beradi. Masalan, metilyodid molekulasida bog'langan va bog'lanmagan orbitallar asosan to'ldirilgan, ammo  $\sigma^*$  orbital egallanmagan, shuning uchun bog'lanmagan orbitaldan bitta elektron  $\sigma^*$  orbitalga o'tishi uchun  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  o'tishdan farqli,  $n \rightarrow \sigma^*$  o'tish kamroq energiya talab qiladi, shuning uchun ham yutilish  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  o'tishdagi yutilishga nisbatan katta to'lqin uzunlikdagi soha ( $\lambda=259$  nm)da namoyon bo'ladi.



Olefin uglevodorodlardagi elektron o'tishlarda oddiy bog'larni hosil qiluvchi elektronlarga nisbatan kamroq energiyaga ega bo'lgan  $\pi$ -elektronlar bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga oson o'tadi, bu o'tish uchun kam energiya sarf bo'ladi va uni  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tish turi sifatida ko'rsatiladi.  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishga tegishli bo'lgan yutilish maksimumi katta to'lqin uzunlik sohasida namoyon bo'ladi.

Agar molekulalardagi funksional guruxlarda qo'shbog' hamda taqsimlanmagan juft elektronlari bo'lgan geteroatomlar bo'lsa, bunday guruxlar uchun  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishga nisbatan geteroatomdagi taqsimlanmagan elektronlarning o'tishi ahamiyatlari bo'lib, uni  $n \rightarrow \pi^*$  o'tish sifatida izohlanadi, bu jarayonning kuzatilishi uchun esa kam energiya sarf bo'ladi. Bu elektron o'tishga tegishli bo'lgan yutilish maksimumi kichik intensivlik bilan boshqalardan farq qiladi. Elektron o'tishlarni energiyasi bo'yicha quydagicha ifodalash mumkin:

Amaliyotda asosan ahamiyatga ega bo'lgan elektron o'tishlarga  $\pi \rightarrow \pi^*$ ,  $n \rightarrow \pi^*$ , va ayrim  $n \rightarrow \sigma^*$  larni ko'rsatish mumkin. Ultrabinafsha spektrining

maksimum qiymatlarini namoyon bo'lishida molekuladagi elektronlarning bir atomdan ikkinchi atomga ko'chishi - lokallanish (benzol) va delokallanish holatlari (piridin) ham katta ahamiyatga ega.

### Xromofor guruxi tutgan organik moddalarning UB spektrlari

O'rganilayotgan modda UB sohada yutilish maksimumiga ega bo'lmasa tarkibida dien, polien sistemalarining, aromatik xalqa va karbonil guruxi yo'qligini bilishi mumkin.

Molekulada bitta qo'shbog' yoki uch bog' bo'lsa, ularga tegishli bo'lган  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tish maksimumining qiymati 200 nm dan kichik qiymatli sohada namoyon bo'ladi, shuning uchun bunday birikmalar amaliyotda UB spektri bilan o'rganilmaydi, ammo qo'shbog'lar sonining ortib borishi molekulada yutilish maksimumlarini katta to'lqin uzunlik sohada namoyon bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Kon'yugirlangan bog'li dienlar uchun  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishga tegishli bo'lган yutilish 215-270 nm oralig'ida sodir bo'lib, spektr maksimumining qiymatlari dien tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Agar dien trans-konformatsiyali tuzilishda bo'lsa, uning yutilish maksimumi tsis-konformatsiyalikidan kichikroq qiymatli sohada namoyon bo'ladi. Molekulada qo'shbog'larning joylashishiga qarab izomer birikmalarni bir-biridan farq qilish mumkin. Masalan,



$$\lambda_{\text{maks}} < 200 \text{ nm}$$

$$\lambda_{\text{maks}} = 258 \text{ nm} (\varepsilon 7200)$$

Xalqali dien sistemalarining yutilish maksimumlari qo'shbog'larning bir-biriga nisbatan qanday joylashishiga hamda xalqaning tuzilishiga bog'liq bo'ladi (jadval).

Ayrim dien birikmalarning UB sohada yutilish maksimumlari

*jadval.*

Birikmalar	Tuzilishi	$\lambda_{\text{maks}}, \text{nm}$
1. 3-metilentsiklopenten-1		234
2. TSiklopentadien-1,3		240
3. 1,2-dimetilentsiklopantan		243
4. 3-metilentsiklogeksen-1		231
5. TSiklogeksadien		258
6. 1,2-dimetilentsiklogeksan		243
7. TSikloheptadien		248

Dien birikmalarining UB sohadagi yutilish maksimumlar qiyatlariga molekuladagi alkil radikali va qo'shni xalqadagi guruxlarning soni ta'sir qiladi. Buni hisobga olib ayrim moddalarning yutilish maksimumlarini Vudvord formulasi yordamida hisoblash chiqarish mumkin.

$$\lambda_{\text{maks.}} = 217 + 5A + 30V + 5C$$

217 - butadienning yutilish maksumumi


A - alkil guruxlar soni

V - kon'yugirlangan qo'shbog'lar soni


S - ekzoxalqali qo'shbog'lar soni

Qo'shbog'dan alohida joylashgan alkil guruxi moddaning UB sohadagi yutilish maksimumiga ta'sir qilmaydi; dien sistemaning birinchi yoki to'rtinchisi holatida joylashgan alkil guruxi **bataxrom siljishni**, ya'ni kichik to'lqin uzunlik sohadan katta to'lqin uzunlik sohaga (7-10 nm gacha) o'tishni hosil qiladi, ikkinchi yoki uchinchi holatdagisi esa 3-4 nm gacha siljishga olib keladi. Vudvord formulasi asosida dienlar uchun hisoblab topilgan yutilish maksimumining qiymati amalda topilganidan  $\pm 5$  nm ga farq qiladi.

Molekulada kon'yugirlangan qo'shbog'lar sonining oshishi UB sohada bataxrom siljishga sababchi bo'ladi. Zanjirga har bir yangi qo'shbog'ning kiritilishi yutilish maksimumining qiymatini avvalgisiga nisbatan o'rtacha taxminan 40 nm ga oshiradi.



Molekulada konyugirlangan qo'shbog'lar sonini yanada oshib borishi yutilish maksimumini ko'rinvchan sohaga siljitadi, bunday moddalar rangli ko'rinishda bo'ladi. Masalan,  $\beta$ -karotin tuzilishini misol qilib ko'rsatish mumkin.



Demak, moddalarning UB sohada yutilish maksimumi asosida molekula tarkibida polien sistema borligini va kon'yugirlangan qo'shbog'larning sonini aniqlash mumkin.

Tarkibida karbonil guruxi tutgan moddalar - al'deigidlar, ketonlar uchun yutilish maksimumi 275-290 nm. ni tashkil etadi va yutilish  $n \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishga tegishli hisoblanadi. By o'tish simmetriya bo'yicha ta'ziqlangan bo'lgani


uchun maksimum intensivligi kichik bo'ladi ( $e=15-20$ ). Al'bedegid va ketonlar yutilish maksimumining qiymatiga erituvchining tabiatini ta'sir qiladi. Karbonil guruxi bilan vodorod bog' hosil qiluvchi erituvchilar ( $>\text{S}=\text{O}\dots\text{N}-\text{O}-\text{R}$ ) yutilish maksimumining qiymatini kichik to'lqin uzunlik sohaga (**gipsoxrom**) siljishiga sababchi bo'ladi, chunki vodorod bog'inining hosil bo'lishi p-orbitalning energetik holatini kamaytiradi.

Kislotali muhitda  $n\rightarrow\pi^*$  elektron o'tish maksimumi kuzatilmaydi, chunki bu sharoitda karbonil guruxidagi kislordaning taqsimlanmagan elektronlari kislotaning vodorod ionlari bilan bog'lanib qoladi, ya'ni protonlanish hodisasi ro'y beradi. Karbonil guruxiga tegishli bo'lgan maksimum asosan katta to'lqin uzunligidagi sohada namoyon bo'ladi.

To'yinmagan al'bedegid va ketonlar UB sohada yuqori intensivlikdagi  $\pi\rightarrow\pi^*$  va kamroq intensivlikdagi  $n\rightarrow\pi^*$  elektron o'tishlarga tegishli yutilish maksimumlarini namoyon qiladi. Karbonil guruxiga tegishli bo'lgan  $n\rightarrow\pi^*$  elektron o'tish to'yingan al'bedegid va ketonlarga nisbatan to'yinmagan birikmalarda katta qiymatli to'lqin uzunlik sohasida yutilish maksimumini hosil qiladi.

### **Aromatik va geterxalqali birikmalarning UB spektrlari**

Aromatik birikmalardan benzol UB sohada ikkita maksimumni -  $\lambda_{\text{maks}}=200$  nm ( $e=8000$ ) va  $\lambda_{\text{maks}}=255$  nm ( $e=200$ ) hosil qiladi, xalqadagi o'rinosbosar tabiatini ham maksimumga ta'sir etadi, masalan, alkil radikali +6 nm, galogen +9 nm,  $\text{ON}, \text{OSN}_3$  +15 nm,  $\text{NH}_2$  bo'lsa +25 nm ga maksimumni oshiradi (rasm).



**Rasm. Benzol va uning hosilalarining UB spektrlari: 1-benzol; 2-fenol; 3-anilin.**

Agar benzol xalqasidagi o'rinosbosarlar soni ikkita bo'lsa, yutilish maksimumlari o'rinosbosarlarning bir-biriga nisbatan xalqada joylashishiga va o'rinosbosar elektrono-donor yoki elektrono-aktseptorligiga ham bog'liq bo'ladi. Orta va meta izomerli benzol hosilalarining UB spektrlari bir-biriga o'xshash, ammo para-izomerlarniki esa ulardan keskin farq qilib, bitta intensiv yutilish maksimumini namoyon qiladi.

## Benzol hosilalarining UB-yutilish maksimumlari.

Jadval.

<b>R</b>	<b>Ikkinchi yutilish maksimumi, <math>\lambda_{maks}</math></b>	<b><math>\epsilon</math>-intensivlik</b>	<b>Uchinchi yutilish maksimumi, <math>\lambda_{maks}</math></b>	<b><math>\epsilon</math>-intensivlik</b>
N	203	74000	256	200
SN	206	7000	261	225
F	204	8000	248	500
Cl	210	7400	264	190
Br	210	7900	261	192
OH	211	6200	270	1450
SH	236	8000	271	630
NH	230	8600	280	1430
CH=CH <sub>2</sub>	244	12000	282	750
NO <sub>2</sub>	259	8000	-	-
OCH <sub>3</sub>	217	6400	269	1480
COOH	230	11600	273	970

Kondensirlangan aromatik birikmalarning UB sohadagi yutilish maksimumining intensivligi yuqori bo'lib, ularda benzolga nisbatan bataxrom siljish namoyon bo'ladi. Masalan, naftalin lmaksq221 nm (e 117000), 275 nm (e 10000), 297 nm (e 650), antratsen lmaksq251 nm (e 200000), 265 nm (e 7500).

## Organik moddalarning UB yutilishidagi ma'lumotlar

Jadval

<b>Maksimumlar soni</b>	<b>Maksimumlar parametrlari <math>\lambda (\epsilon)</math></b>	<b>Molekula tuzilishi haqida xulosa</b>
0	-----	Xromofor guruxlar yo'q
1	200-225 nm (10000-15000)	$\alpha, \beta$ -to'yinmagan karbon kislotalari va hosilalari.
	215-235 nm (10000-20000)	Xalqali va ochiq zanjirli dien birikmalar (trans izomer)
	240-270 nm (3000-8000)	TSis konfiguratsiyali xalqali dien
	275-290 nm (15-25)	To'yingan albedegid yoki keton
	270-370 nm (50000-150000)	Tarkibida 3-6 konjugirlangan qo'sh bog'li polien
	400-470 nm (150000-180000)	Tarkibida 7-12 konjugirlangan qo'sh bog'li polien
	200-230 (7000-9000) 260-280 (200)	Benzol hosilalari

2	200nm (500) 276-280 nm (20) 240-230 nm (1200-20000) 320-340 nm (20-40)	$\alpha,\beta$ -to'yinmagan aldegid yoki keton nitrobirikmalar
3	221 nm (117000), 275 nm (10000), 297 nm (650)	Ko'p xalqali aromatik birikmalar (naftalin, antratsen va boshqalar)

To'yinmagan geteroxalqali birikmalarning UB spektrlari xalqaning tuzilishiga bog'liq bo'lib, besh a'zoli bunday birikmalarda elektron o'tishga tegishli maksimum kuzatilmaydi, chunki geteroatomdagi taqsimlanmagan elektronlar jufti xalqadagi qo'shbog'ning p elektronlari bilan o'zaro tasirida bo'ladi (delokallanish). Ayrim geteroxalqali birikmalarning UB sohadagi yutilish maksimumlari quyidagi qiymatlarda bo'ladi:

### Jadval


Ayrim birikmalarning UB sohadagi yutilish maksimumlari

	$\lambda_{\text{maks}}$ (geksan)	$\epsilon$	
Furan	200, 252	10000,	1,0
Tiofen	- , 235	- ,	4500
Pirrol	210, 350	15000,	300
Piridin	195, 250	7500,	2000
Xinolin	275, 311	4500,	6300

Keltirilgan ma'slumotlar to'yinmagan geteroxalqali birikmalarning UB sohadagi yutilish maksimumlari benzol molekulasingin yutilishiga yaqinligidan dalolat beradi.


Agar geteroxalqali birikmalar qo'shbog' tutgan birikmalar bilan bog'langan bo'lsa, bataxrom siljishni kuzatish mumkin.

Agar benzol xalqasi besh xalqali geteroatom tutgan birikma bilan kondensirlangan bo'lsa, masalan indol sistemasida, ikkita yutilish maksimumi namoyon bo'ladi (rasm).




Rasm. Indolning UB spektri.


Indol molekulasiiga tegishli bo'lgan yutilish maksimumlaridan tabiatda ko'p tarqalgan va katta sinfni tashkil qiladigan indol alkaloidlarining tuzilishini aniqlashda ishlatish mumkin.



Indol  
I = 225 (e 2500)  
I = 270



Alloioximbin  
I = 225 (e 3290)  
I = 290 (e 5540)




Aymalitsin  
L = 225 (e 4900)  
I = 270 (e 6750)

Aymalitsin alkaloidining UB spektrida  $\lambda=225$  nm maksimumi va e qiyamatining yuqori bo'lishiga asosiy sabab  $\text{CH}_3\text{COO}$  guruxi yon tomonida qo'shbog'ning borligi deb hisoblash mumkin.

### **3-Mavzu: ChemOffice dasturida birikmalarni nomlash, $^{13}\text{C}$ , YaMR, PMR spektrlarini hisoblash**

1. Спектр файлини очинг.
2. Спектрга белгиламоқчи бўлган структура ёки структураларни чизинг.
3. Структурадаги махсус атом ва боғланишларни танланг.
4. Сиз структурага белгиланишини ҳоҳлаган чукки ёки чуккиларни қилинг.



5. **Structure** менюсидан **Make Spectrum-Structure Assignment**. ни танланг.


4. Структурадаги танланган атом ва боғланишлар спектр чуккилари билан бирга бирлаштирилади.

#### **7.2. Спектр белгилашларни таҳрир қилиш.**

Спектр белгилашларни кўриб чиқиш учун

1. **Losso** ёки **Margue** қурулмаларига киринг.
2. Кўрсаткични **peak** устига жойлаштиринг.


## ЯМР ахбороти



Белгиланган атомларни ва боғланишлар ёрқин рангда номоён бўлади.


**Chem ЯМР Pro**, **ChemDraw Ultra** нинг хусусиятидир. **Chem ЯМР Pro** танланган молекулалар учун протон ва  $\text{C}^{13}$  ҳолатини номоён қиласи ва баҳолайди.

1. Кўрилаётган кимёвий структурасини танланг.




2. Estimate менюсидан ёки Scripts менюсидан  $\text{H}^1$  ЯМР Shift ёки  $\text{C}^{13}$  ЯМР Shift ни танланг.

### ChemNMR H-1 Estimation



Estimation Quality: blue = good, magenta = medium, red = rough



#### Protocol of the H-1 NMR Prediction:

Node	Shift	Base + Inc.	Comment (ppm rel. to TMS)
CH	7.02	7.26 -0.12 -0.12	1-benzene 1 -C=C 1 -C
	7.02	7.26 -0.05 -0.10	1-benzene 1 -C=C 1 -C
	7.18	7.26 0.04 -0.12	1-benzene 1 -C=C 1 -C
CH	7.01	7.26 -0.05 -0.20	1-benzene 1 -C=C 1 -C
	3.22	1.37 1.22 0.63	methylene 1 alpha -1:C'C'C'C'1 1 alpha -C=C
	6.58	5.25 1.65 -0.32	1-ethylene 1 -1:C'(R)'C'C'C'1 gem 1 -C-1:C'C'C'C'1 trans
H	6.39	5.25 0.09 1.05	1-ethylen 1 -1:C'(R)'C'C'C'1 trans 1 -C-1:C'C'C'C'1 gem

